XALQ DEPUTATLARI YANGIYO‘L SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-18-103-10-196-K/25 Yangiyo‘l shahar

Yangiyo‘l shahrining 2026-yilga mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuniga va xalq deputatlari Toshkent viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-26-162-10-0-K/25-son qaroriga muvofiq hamda Toshkent viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 26-dekabrdagi 04/1130-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Yangiyo‘l shahar Kengashi,

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Toshkent viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-26-162-10-0-K/25-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, Yangiyo‘l shahar budjetining 2026-yilgi daromadlari **72 509,7 mln.so‘m** va xarajatlari esa **72 509,7 mln.so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi, shuningdek, Yangiyo‘l shahar budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **302,2 mln.so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Shahar budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda shahar budjetidan 2026-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq shuningdek, Yangiyo‘l shahar mahalliy budjetiga

umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari **3-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

4. Shahar budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **1 196,5 mln.so‘m** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Quyidagilar:

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 4-ilovaga;

jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 5-ilovaga;

ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 1 m^2 uchun mutlaq miqdorda belgilangan minimal qiymatga nisbatan kiritilayotgan koeffitsientlar 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (A.Isanbayev), shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Sh.Mirzaraximov), shahar soliq inspeksiyasi (R.Boboyev) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan budjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari shahar Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

budjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

budjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

8. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Yangiyo‘l shahar Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi G.Sultanova hamda shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari A.Isanbayev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **R.Raimov**

Xalq deputatlari Yangiyo‘l shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-103-10-196-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Yangiyo‘l shahar mahalliy byudjeti daromadlarining 2026 yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/r	Daromad turlari	Jami
1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	9 215 100
2	Foyda solig‘i	867 050
3	Korxonalar aylanmasidan soliq	8 440 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	6 189 500
5	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan tushgan soliq	1 469 000
6	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	2 277 000
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	13 404 000
8	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	7 575 000
9	Yuridik shaxslar yer solig‘i	11 071 000
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	5 276 000
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	3 089 000
12	Davlat boji	1 888 380
13	Yig‘imlar	602 400
14	Jarimalar	911 300
15	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	235 000

JAMI	**72 509 730**

Xalq deputatlari Yangiyo‘l shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-103-10-196-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026 yil uchun Yangiyo‘l shahar mahalliy byudjet xarajatlarining reja ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar		**Miqdori** (ming so‘m)
	Xarajatlar - jami	**72 509 730**
1	Maktabgacha va maktab ta’lim bo‘limi	20 160 106
	mening maktabim	*741 600*
2	Madaniyat bo‘limi	1 350 114
3	22-son bolalar musiqa maktabi	3 220 352
4	Sport maktabi	4 062 786
5	Obodonlashtirish boshqarmasi	13 842 698
6	Veterinariya qo‘mitasi	690 024
7	Mahalla byudjeti jamg‘armasi	771 797
8	Hokimiyat	21 662 162
	Shundan	
	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi	*69 753*
	Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi	*306 159*
	Oila va xotin-qizlar bo‘limi	*1 026 498*
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*13 438 023*
	Zahira jamg‘armasi	*1 196 537*
9	Yoshlar ishlar agentligi	2 102 947
10	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	1 396 879
11	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	1 856 187
	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	257 233
12	Axborot kutubxona markazi	700 067
13	Usmon Yusupov memorial uy-muzeyi	436 378

Xalq deputatlari Yangiyo‘l shahar Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-103-10-196-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Umumdavlat soliqlaridan Yangiyo‘l shahar mahalliy byudjetiga ajratmalar me’yori

№	Hududlar nomi	QQS		Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i		Foyda solig‘i		Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan tushgan soliq		benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i		Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq		Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i		Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq		Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq		Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar		Aylanmadan soliq	Davlat boji	Jarimalar	Yig‘imlar
		shahar budjetiga		shahar budjetiga		shahar budjetiga		shahar budjetiga		shahar budjetiga		shahar budjetiga		shahar budjetiga		shahar budjetiga		shahar budjetiga		shahar budjetiga		shahar budjetiga	shahar budjetiga	shahar budjetiga	shahar budjetiga
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB				
1	Yangiyo‘l shahri	0%	10%	0%	10%	0%	5%	100%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	100%	100%	100%	100%	0%	0%	100%	15%	13%	35%

Xalq deputatlari Yangiyo‘l shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-103-10-196-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha Yangiyo‘l shahar mahalla fuqarolari yig‘inlari kesimida yer solig‘i stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsientlar

T/r	MFYlar nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, 1 ga uchun	
		Koeffitsient (0,7 dan 2,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2026 yil uchun (ming so‘mda)
1	Baxt MFY	1,09	62 727
2	Ishchilar shaharchasi MFY	1,03	62 727
3	Qovunchitepa MFY	1,03	66 381
4	Lazzat MFY	1,09	66 381
5	Mezon MFY	1,09	66 381
6	Oltinobod MFY	1,09	66 381
7	Navro‘z MFY	1,09	68 817
8	Olmos MFY	1,13	60 900
9	Ramadon MFY	1,00	66 381
10	Sabo MFY	1,09	62 727
11	Turkiston MFY	1,03	66 381
12	Fayzli MFY	1,09	66 381
13	Fayzobod MFY	1,09	62 727
14	Farovon MFY	1,03	66 381
15	Yangi bog‘ MFY	1,09	62 727
16	Yangiobod MFY	1,03	62 727
17	Nov MFY	1,03	62 727
18	Baxor MFY	1,03	62 727
19	Yangihayot MFY	1,03	62 727
20	Mustaqillik MFY	1,03	66 381
21	Bog‘bon MFY	1,09	62 727

Xalq deputatlari Yangiyo‘l shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-103-10-196-K/25 -son qaroriga
5-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha Yangiyo‘l shahar mahalla fuqarolari yig‘inlari kesimida yer solig‘i stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsientlar

T/r	MFYlar nomi	Jismoniy shaxslar bo‘yicha, 1 kv.m uchun	
		Koeffitsient (0,7 dan 2,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2026 yil uchun (so‘mda)
1	Baxt MFY	1,24	680,51
2	Ishchilar shaharchasi MFY	1,24	680,51
3	Qovunchitepa MFY	1,03	565,26
4	Lazzat MFY	1,24	680,51
5	Mezon MFY	1,24	680,51
6	Oltinobod MFY	1,24	680,51
7	Navro‘z MFY	1,13	620,14
8	Olmos MFY	1,24	680,51
9	Ramadon MFY	1,03	565,26
10	Sabo MFY	1,24	680,51
11	Turkiston MFY	1,03	565,26
12	Fayzli MFY	1,14	625,63
13	Fayzobod MFY	1,14	625,63
14	Farovon MFY	1,03	565,26
15	Yangi bog‘ MFY	1,14	625,63
16	Yangiobod MFY	1,03	565,26
17	Nov MFY	1,03	565,26
18	Baxor MFY	1,03	565,26
19	Yangihayot MFY	1,24	680,51
20	Mustaqillik MFY	1,03	565,26
21	Bog‘bon MFY	1,14	625,63

Xalq deputatlari Yangiyo‘l shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-103-10-196-K/25 -son qaroriga
6-ilova

Yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan (minimal qiymat) mutloq miqdorlari

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Koeffitsient	Mutloq miqdor *(so‘mda)*
1	Yangiyo‘l shahri	1,00	1 300 000,00

Xalq deputatlari Yangiyoʻl shahar Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-103-10-196-K/25 -son qaroriga
7-ilova

Jismoniy shaxslarning mol-mulk soligʻi stavkalari boʻyicha tuman va shaharlar kesimida 2026-yilga belgilangan koeffitsiyentlari

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Koeffitsiyent*				
		Uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (umumiy maydoni 200 kv.m gacha boʻlganlarini qoʻshib hisoblaganda), koʻp kvartirali uylarga uzviy bogʻliq boʻlgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlar, binolar va inshootlar	200 kv.m dan ortiq va 500 kv.m gacha boʻlgan	500 kv.m dan ortiq boʻlgan	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq boʻlgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari	Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish obyektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromadlar olish uchun moʻljallangan, yashash uchun moʻljallanmagan koʻchmas mulk obyektlari
1	Yangiyoʻl shahar	1,10	1,10	1,10	1,10	1,05

Xalq deputatlari Yangiyo‘l shahar Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-103-10-196-K/25 -son qaroriga
8-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar
(qishloq ho‘jaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari va ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YATTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
		Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti
1	Yangiyo‘l shahar	1,15	1,20	1,20	1,20	1,15	1,20	1,20	1,20

Xalq deputatlari Yangiyoʻl shahar Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-103-10-196-K/25 -son qaroriga
9-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qatʼiy stavkalariga qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar*

T/r	**Tuman va shaharlarnomi**	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chigʻanoq, ohaktosh *(sement va ohak ishlab chiqarish uchun moʻljallangan ohaktoshdan tashqari)*, dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	Gʻisht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shagʻal aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar)
1	Yangiyoʻl shahar	1,25	1,15	1,15	1,25	1,25	1,30	1,30

Xalq deputatlari Yangiyo‘l shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-103-10-196-K/25 -son qaroriga
10-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar bo‘yicha tuman va shaharlar kesimida yerlari stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsiyentlar

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Koeffitsiyent	Stavkasi (foizda)
1	Yangiyo‘l shahar	1,00	1,00

* Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarishga mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari) qat’iy belgilangan stavkalarga 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsiyent belgilashga haqli